



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

XX ASR BOSHLARIDA AFG‘ON SIYOSIY IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHIDA TURK TEXNOKRATLARINING ROLI

Aziz Husan o‘g‘li Fayzullayev

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: fayzullayevazizbek162@gmail.com

Tel: (90)118-80-50

Annotatsiya. XX asrning dastlabki o‘ttiz yilida Afg‘oniston izolyatsiyadan chiqib, modernizatsiyaning shakllanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Turli transmilliy va mafkuraviy manfaatdor kuchlar mamlakatga o‘ziga xos modernizatsiya va davlatchilik modellarini tatbiq etishga harakat qildi. Biroq, Afg‘oniston taraqqiyotining yo‘nalishini belgilashda eng katta ta’sirga ega bo‘lgan tajriba Usmonli turk modernizmi bo‘ldi. Ushbu tadqiqot Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi modernizatsiya jarayonining Afg‘on davlatchiligining shakllanishidagi tarixiy ahamiyatlarini tahlil qiladi. Birinchidan, XIX asr oxirlaridan boshlab Usmonli modernizmi Afg‘oniston uchun qanday qilib namunaviy tizimga aylanganini yoritadi. Ikkinchidan, XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida Usmonli va Usmonli davridan keyingi turk texnik yordami bir qator asosiy sohalarda qanday namoyon bo‘lganini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Turkiya, identiklik, Turk, Turkman, Hazora, O‘zbek, Usmonli, Turk texnokratlari.

THE ROLE OF TURKISH TECHNOCRATS IN THE FORMATION OF AFGHAN POLITICAL IDENTITY IN THE EARLY 20TH CENTURY

Aziz Husan ogli Fayzullayev

Senior Lecturer at the Department of History and

Anthropology of Eastern Countries,

PhD in History.

Tashkent State University of Oriental Studies,

E-mail: fayzullayevazizbek162@gmail.com

Annotation. In the first three decades of the twentieth century, Afghanistan emerged from isolation and embarked upon the formative stage of modernization. Various transnational and ideological actors sought to introduce their own distinct models of modernization and state-building into the country. However, the most

influential experience in determining the trajectory of Afghanistan’s development proved to be the Ottoman Turkish model of modernization. This study analyzes the historical significance of the modernization process between Afghanistan and Turkey in the formation of Afghan statehood. First, it examines how, from the late nineteenth century onwards, Ottoman modernization came to serve as a paradigmatic system for Afghanistan. Second, it investigates how, during the early decades of the twentieth century, Ottoman and post-Ottoman Turkish technical assistance manifested itself across several key sectors.

Keywords: Afghanistan, Turkey, identity, Turk, Turkmen, Hazara, Uzbek, Ottoman, Turkish technocrats.

РОЛЬ ТУРЕЦКИХ ТЕХНОКРАТОВ В ФОРМИРОВАНИИ АФГАНСКОЙ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Азиз Хусанович Файзуллаев

Старший преподаватель, кандидат исторических наук.

Кафедры истории и антропологии восточных стран,

Ташкентский государственный университет востоковедения,

Электронная почта: fayzullayevazizbek162@gmail.com

Аннотация. *В первые три десятилетия XX века Афганистан вышел из изоляции и вступил в стадию становления модернизации. Различные транснациональные и идеологические силы стремились внедрить в стране свои собственные модели модернизации и государственного строительства. Однако наиболее влиятельным фактором, определившим траекторию развития Афганистана, оказалась османско-турецкая модель модернизации. В данном исследовании анализируется историческое значение процесса модернизации Афганистана и Турции для формирования афганской государственности. Во-первых, в нем рассматривается, как с конца XIX века османская модернизация стала служить парадигматической системой для Афганистана. Во-вторых, исследуется, как в первые десятилетия XX века османская и постосманская турецкая техническая помощь проявилась в нескольких ключевых секторах.*

Ключевые слова: Афганистан, Турция, идентичность, турки, туркмены, хазарейцы, узбеки, османы, турецкие технократы.

KIRISH

Usmonli turk texnokratlari Afgʻonistonga ilk bor 1907–1908-yillarda kelgan boʻlib, ularni Amir Habibulloh (1901–1919) shaxsan taklif etgan va Kobul qirollik saroyida mehmon sifatida qabul qilgan. Ularning asosiy maqsadi Afgʻonistonni izolyatsiyadan chiqarish, xalqni dunyo voqeliklari haqida xabardor qilish va modernizatsiya jarayonini boshlash edi. Bu maqsad yoʻlida turk mutaxassislari mamlakatdagi yagona gazeta — “Siroj ul-Axbor Afgʻoniya”da tahliliy maqolalar chop etishgan, shuningdek, zamonaviy tibbiyotni joriy qilish, taʼlimni isloh qilish, samarali boshqaruv tizimini yaratish va boshqa modernizatsiya loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etishgan. Ularning hissasi qisqa muddatli boʻlmay, aksincha, Afgʻoniston taraqqiyot yoʻnalishini belgilashda uzoq muddatli va taʼsirchan omilga aylandi. Natijada, Turkiya Afgʻonistonni yoʻnaltiruvchi davlat sifatida oʻziga xos ikki tomonlama munosabat shakllandi. Turk texnokratlari Afgʻonistonda turli islohotlarni amalga oshirish bilan birga “texnokratik boshqaruv” deb nomlanadigan jarayonning bevosita ishtirokchilariga aylandilar. Texno-politika — bu zamonaviy davlat mutaxassislarining institutsional va infratuzilmaviy amaliyotlarini oʻz ichiga olgan boshqaruv shaklidir. Shu maʼnoda, Afgʻonistondagi turk islohotchilari oddiy xorijiy maslahatchilardan yuqori maqomga ega boʻlib, ichki siyosat shakllanishida muhim rol oʻynadi. Bu esa ularning mavqeini oddiy ekspertlardan mamlakat siyosiy va boshqaruv tizimiga taʼsir koʻrsatgan muhim islohotchilar darajasiga koʻtardi.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIK TAHLILI

Usmonli turk texnokratlari XX asrning dastlabki oʻn yilligida Afgʻonistonda modernizatsiya jarayonini boshlab berishda muhim rol oʻynagan. Shunga qaramay, Afgʻoniston Usmonli tarixshunosligida asosan eʼtibordan chetda qolgan mavzulardan biri boʻlib kelgan. Turkiya va Afgʻoniston oʻrtasidagi tarixiy munosabatlarga oid monografiya, Mustafa Kamol Otaturk va Afgʻoniston aloqalarini yorituvchi tadqiqot hamda hindistonlik musulmonlar va Usmonli imperiyasi oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganishga bagʻishlangan ishlar mavjud boʻlsa-da, Afgʻonistonda turklar ishtirokidagi rivojlanish va modernizatsiya jarayoni haqida batafsil ilmiy adabiyot hali shakllanmagan. Oʻrganilgan manbalar ham asosan Turkiya davlatida yaratilgan boʻlib, ularga M. Köçer¹, Bilal N. Şimşir², Akşin

¹ M. Köçer, Adnan Menderes’in Afganistan Ziyareti Ve Bu Ziyare tinin Türk Basımında Yansımaları. Türkçe Çalışmaları. – 2015. 10(1). – S.419-436.

² Bilal N. Şimşir: Atatürk ve Afganistan, Avrasya Bir Vakfı Asam Yayınları, Ankara, 2002. – S.359-361.

A³, Selçuk Çolakoğlu⁴ kabilar munosabatlarning tarixiy va ijtimoiy asoslarini ko’rsatib bergan.

MUHOKAMA

Ushbu izlanishimiz davomida quyidagi jihatlarni muhokama qilishga harakat qildik. Birinchidan, Afg‘onistonning modernizatsiya modeli va transmilliy ta’sirlarni o‘rganib, unda XX asr boshlarida Afg‘oniston modernizatsiya jarayoniga bir qator tashqi kuchlar – Rossiya, Britaniya va musulmon Sharqi mamlakatlari ta’sir ko‘rsatishga intilganini tahlil qildik. Shunga qaramay, Usmonli turk modernizmi boshqa modellar ichida eng ko‘p ta’sir o‘tkazgani isbotlandi. Bu jarayonda texnik mutaxassislarning bevosita amaliy ishtiroki, matbuotdagi g‘oyaviy targ‘ibot va tibbiyot, ta’lim, boshqaruv kabi sohalaridagi islohotlar hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ikkinchidan, **texnokratik boshqaruvning shakllanishi jarayoni o‘rganildi**. Usmonli turk mutaxassislarining Afg‘onistonga faqat maslahat beruvchi chet ellik sifatida emas, balki mamlakatning ichki siyosatida faol ishtirok etgan “texnokratik boshqaruv” sub’yektlari sifatida qatnashgani muhim ilmiy kuzatuv sifatida qayd etiladi. Bu hodisa Afg‘onistonda modernizatsiya jarayonining mahalliy elitalar tashabbusidan tashqari, tashqi texnokratik ta’sir bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Uchinchidan, **Usmonli siyosiy elitasining Afg‘onistonga munosabati o‘rganildi va** Ittihad va Taraqqiy partiyasi Afg‘onistonni Usmonli nufuzini mustahkamlash uchun “tajriba maydoni” sifatida ko‘rganligi xulosalandi. Bu esa Afg‘onistonni faqat modernizatsiya obyekti emas, balki Usmonli geosiyosiy strategiyasining bir qismi sifatida tushunish zarurligini ko‘rsatadi. Michael O’Sullivan ilgari surgan “noformal imperiya” konsepsiyasi orqali Afg‘onistonni Usmonli texnokratlari orqali “yumshoq kuch” doirasiga kiritilganini tahlil qilish mumkin.

Shu o‘rinda so‘nggi Usmonli rahbariyati va elitasi nega Afg‘oniston va unda modernizatsiya harakatlarini jadallashtirishga katta e’tibor qaratishgan degan savol paydo bo‘ladi. Ittihad va Taraqqiy partiyasi a’zolari Afg‘onistonni Usmonli nufuzini oshirish uchun mukammal tajriba maydoni sifatida ko‘rgan edilar. Ularning fikricha, dunyodan uzilgan va rivojlanmagan bu mamlakatni ma’rifat bilan yoritish orqali Usmonli imperiyasining obro‘cini mustahkamlash mumkin edi. Bu qarash ayniqsa Usmonli turk texnokratlari Afg‘onistonda ichki siyosatni shakllantirishda mislsiz vakolatlarga ega bo‘la boshlagach, yana-da kuchaydi. Ular nafaqat islohotlarni olib bordilar, balki afg‘on hukmdorlari bilan yaqin aloqalar o‘rnatib, shaxsiy ta’sir

³ Akşin A. Atatürk’ün Dış Politika İlkeleri ve Diplomasisi. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayını, 1991. – S.191-192; Atatürk ve Yabancı Devlet Başkanları, Cilt I, Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara. – 1993. – S.16.

⁴ Selçuk Çolakoğlu – Mehmet Yegin, “The Future of Afghanistan and Turkey’s Contribution,” International Strategic Research Organization (USAK), s. 30.

doiralarini kengaytirishdi. Natijada, XX asrning dastlabki o‘n yilliklarida turk-afg‘on munosabatlari noyob bir hodisa sifatida shakllandi. Tadqiqotchi Maykl O‘Sullivan tomonidan "noformal imperiya" deb atalmish ushbu holatda Usmonli turk texnokratlarining Kobuldagi faoliyati natijasida Afg‘oniston o‘ziga xos tarzda Usmonli Portasi ta’sir doirasiga tushib qoldi. O‘zbek-Afg‘on modernizmining eng mashhur ziyolisi Mahmud Tarziy ham ushbu g‘oyalarni qo‘llab-quvvatladi. Usmonli imperiyasida surgunda bo‘lgan shaxsiy tajribasi uni Kobulga turk mutaxassislarini taklif etishga ilhomlantirgan edi. Uning sa’y-harakatlari bilan Afg‘onistonning taraqqiyot modeli qat’iy ravishda turk modernizmi asosida shakllandi.

Bugungi kunda ham bu tarixiy meros Turkiyaga Afg‘onistondagi tinchlik o‘rnatish jarayonlarida o‘z ta’sirini qayta jonlantirish imkoniyatini yaratmoqda.

TURK-AFG‘ON ALOQALARINING ASOSI (1901–1919)

Afg‘onistonning XVI asrdan XIX asr boshlarigacha Yevropa va musulmon O‘rta Yer dengizi mintaqasi bilan aloqalari nihoyatda cheklangan bo‘lgan. Erondan, Usmonli imperiyasidan, Hindiston va Markaziy Osiyodan farqli o‘laroq, Afg‘oniston mustaqil siyosiy tuzilma sifatida shakllangan ilk davrlarda (1747–1838) hech qanday yirik yevropalik mustamlakachilar ta’siriga tushmagan. Natijada, Afg‘oniston o‘ziga qo‘shni hududlar va davlatlardan farqli ravishda modernizatsiya va siyosiy islohot jarayonlariga kechroq kirishgan va XX asr boshlariga qadar madaniy jihatdan nisbatan orqada qolgan davlat bo‘lib qolgan. XX asr boshlariga oid bir zamonaviy manbada Afg‘oniston “sivilizatsiya yetib bormagan oxirgi yopiq mamlakatlardan biri, bu yerda dehqonlar faqat mahalliy ruhoniylardan eshitganlari orqali dunyo haqida tasavvurga ega” deb ta’riflangan⁵. Shunga qaramay, XIX asr oxirida Afg‘oniston tashqi dunyo bilan cheklangan darajada bo‘lsa ham aloqalar o‘rnatgan. Kobulga tashrif buyurgan xorijiy delegatsiyalar orqali mamlakatga tashqi ta’sir kirib kela boshlagan. Ayniqsa, Afg‘on elitasining Usmonli turk davlat boshqaruvi va islohot modeli bilan qiziqishi ortgan edi. Bu esa keyinchalik Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasida chuqur siyosiy va madaniy aloqalarning shakllanishiga asos yaratdi.

XIX asr oxirida Usmonli modernizatsiya modeli Afg‘onistonda islohotlar uchun asosiy andozaga aylandi. Bunga 1870-yillarda Qashg‘arda yashagan Yoqutbek armiyasini tayyorlagan ko‘plab Usmonli ofitserlari hamda Kobul va Istanbul o‘rtasida o‘rnatilgan diplomatik muloqotlar sabab bo‘ldi⁶. Usmonli imperiyasining 1877-yilda Afg‘onistonga yuborgan ilk diplomatik missiyasi

⁵ Roland Wild, *Amanullah: Ex-King of Afghanistan*, (Quetta: Nisa Traders, 1932), p. 65.

⁶ Michael B. O’Sullivan, *The Little Brother of the Ottoman State: Ottoman Technocrats in Kabul and Afghanistan’s Development in the Ottoman Imagination*, pp. 1846–1887.

mamlakatda konstitutsiya g‘oyasi va huquqiy modernizatsiya tushunchasini tanishtirishda katalizator bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, Sulton Abdulhamid II ning panislomistik birdamlikni targ‘ib qilish borasidagi harakatlari Afg‘onistonga ham ta’sir ko‘rsatdi.

1880-yillardan boshlab, amir Abdur Rahmon Usmonli davlatining tuzilishi haqidagi asarlarni buyurtma qilgan bo‘lib, bu ishlar uning hukmronligi davrida ma’muriy va huquqiy islohotlar uchun dastur bo‘lib xizmat qilgan. 1919–1929 yillarda keng ko‘lamli islohotlar dasturi amalga oshirildi. Bunga esa undan oldingi yigirma yil ichida islohotchilik harakatlari va xorijiy texnik yordamning joriy etilishi zamin hozirlagan edi. 1904-yilda amir Habibulloh Usmonli davlatiga nisbatan yaqqol ijobiy munosabat bildirib boshladi: Kobulda Usmonli uslubidagi fez kiyish madaniyatini joriy etdi, Hijoz temir yo‘li loyihasini qo‘llab-quvvatladi. Usmonli o‘qituvchilari va ulamolarini Afg‘onistonga taklif qildi.

Bu davrda Abdurahmon tomonidan Afg‘onistondan chiqazib yuborilgan Mahmud Tarziy aynan Usmonli imperiyasidan boshpana topdi, shu yerda ta’lim oldi, uning islohotchilik g‘oyalari aynan shu yerda shakllangan. U Damashq va Istanbuldagi maktablarda o‘qish davomida Yevropa madaniyati va institutlari bilan tanishdi, shuningdek, Usmonli millatchilik-uyg‘onish harakati va Sayyid Jamoliddin al-Afg‘oniyning panislomistik qarashlari ta’sirida bo‘ldi. Mahmud Tarziy birinchi afg‘on ziyolilaridan biri bo‘lib, Yevropa ustunligi faqatgina harbiy qudrat bilan emas, balki G‘arb madaniy, iqtisodiy va sanoat yutuqlari bilan ham bog‘liq ekanini ta’kidlagan. U Yevropaning taraqqiyotiga qoyil qolgan bo‘lsa-da, islomning ashaddiy tarafdori bo‘lib qolgan va musulmon dunyosining G‘arb tomonidan tanazzulga uchrashini islomning o‘zidagi ichki zaiflik emas, balki diniy ta’limotlarning noto‘g‘ri talqin qilinishi va suiiste’mol qilinishi bilan izohlagan⁷. Tarziy musulmon dunyosidagi ichki zaifliklarni bartaraf etish va G‘arb tajovuziga qarshi kurashish uchun ilm-fan va texnologiyani o‘zlashtirish zarurligini ilgari surgan, shunday qilib, G‘arb yutuqlari va islom tamoyillarining sintezini targ‘ib qilgan.

Tarziy o‘z faoliyati davomida Afg‘onistonning birinchi muhim nashri – “Siroj al-Axbor Afg‘oniya” (Afg‘oniston yangiliklari mash’ali) gazetasining nashr etilishini tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Tarziy ushbu gazetaning bosh muharriri va yetakchi muallifi bo‘lib, u orqali afg‘on elitesini uyg‘otish, Afg‘onistonni modernizatsiya va islohotlar sari yetaklash maqsadini ko‘zlagan. 1911-1918 yillarda chop etilgan ushbu gazeta Afg‘oniston modernizmini targ‘ib qilish, hukmron tabaqa va keng jamoatchilikni siyosiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalash vazifasini bajardi.

⁷ Rhea Talley Stewart. *Fire in Afghanistan: 1919-1929, Faith, Hope and the British Empire*. Doubleday & Company Inc, 1973 p. 719.

Mahmud Tarziy Amir Habibullohni Afgʻonistonga turk delegatsiyasini taklif qilish zarurligiga tezda ishontirdi. Tarziy mamlakat islohotlarida yordam berish uchun shifokor, muhandis, moliyachi, rassom va bosmaxonachi kabi mutaxassislardan iborat besh-olti kishilik turk delegatsiyasini Afgʻonistonga olib kelish uchun qirollik ruxsatini oldi. Unga koʻra Mehmed Fazlī, Husayn Husnu, Ali Server, Mehmed Efendi, Ali Munir, Izzet Beylar tashrif buyurishgan⁸. Bu guruh tarkibidagi Mehmed Fazlī ismli usmonli karikaturachi va bosmaxonachi “Rasmlar bilan Afgʻoniston sayohati” (“Resimli Afgan Seyahati”) nomli kundaligi 1909-yilda Istanbulda chop etilgan. Mazkur asar Afgʻoniston armiyasi, ta’lim tizimi va sanoatining holati hamda afgʻon xalqining usmonlilarga nisbatan iliq munosabatini tasvirlab bergan⁹. U shuningdek, sinkografiya (rangsiz bosmaxona texnikasi) maktabi tashkil qilgan, Mahmud Tarziy va Afgʻon hukumati uchun tipografik mashinalar oʻrnatgan.

Usmonli texnokratlarining Afgʻoniston qirollik saroyida paydo boʻlishi usmonlilar tajribasiga asoslangan davlat qurilishi islohotlarini boshlashga turtki boʻldi. Usmonli, afgʻon, nemis va britan manbalarining tasdiqlashicha, Ittihad va Taraqqiyot qoʻmitasi doirasida Afgʻonistonni Usmonli imperiyasi qayta tiklanishi uchun eng mos hudud deb koʻrishgan. Natijada, Turk-Afgʻon munosabatlari Usmonli imperiyasining soʻnggi tarixidagi oʻziga xos hodisa boʻldi. Ular uchun Afgʻonistonni rivojlantirish musulmon dunyosida Usmonli davlatining obroʻsini oshirish vositasi boʻlib xizmat qilishi mumkin edi. Bundan tashqari, Afgʻoniston Rossiya boshqaruvidagi Markaziy Osiyo va Britaniya Hindistoni bilan chegaradosh boʻlgani sababli, uni usmonlilarning propaganda markaziga aylantirish rejalashtirilgan edi. Usmonli mutaxasislari Afgʻonistonning rivojlanishiga chet el aralashuvining salbiy taʼsiridan xabardor edilar va shu bois oʻz islohotlarini Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosatidan farqli ravishda olib borishga harakat qildilar.

Usmonli imperiyasidan Afgʻonistonga ketma-ket texnokratlar kelishi mamlakatda rivojlanish jarayonlarini jadallashtirdi. Usmonli texnik yordami XX asrning dastlabki yillarida ta’lim, harbiy va ma’muriy sohalarda eng koʻzga koʻringan shaklda namoyon boʻldi¹⁰.

Islohotchilar zamonaviy va rivojlangan jamiyat qurish uchun ta’limni asosiy omil deb bildilar. 1904-yilda Amir Habibulloh tomonidan Afgʻonistondagi birinchi zamonaviy maktab – Habibiya Litseyi tashkil etildi. Bu vaqtga qadar Afgʻonistonda ta’lim faqat madrasa (diniy maktablar) doirasida olib borilgan edi. Usmonli

⁸ Mehmet Saray. *Afganistan ve Türkler*. Istanbul, Edebiyat Fakültesi Basimevi, 1987. p. 25.

⁹ Mehmed Fazlī, *Resimli Afgan Seyahati*, Istanbul: Matbaa-i Ahmed Ihsan, 1909.

¹⁰ Celal Nuri, *Ittihad-ı Islam ve Almanya* (Istanbul: Yeni Osmanlı Matbaa ve Kütüphanesi, 1917, p. 54.

o‘qituvchilari Habibiya Litseyida dars bera boshladilar. Tez orada bu maktab siyosiy islohotlar va konstitutsion hukumat g‘oyalari bo‘yicha bahs-munozaralar markaziga aylandi¹¹. 1907-yilda Afg‘onistonda birinchi Konstitutsiyaviy harakat – Mashruta-i Avval tashkil etildi. Bu harakat Rossiya, Usmonli imperiyasi va Erondagi o‘xshash inqilobiy jarayonlar bilan bog‘liq edi. Usmonlilarning Afg‘oniston Konstitutsiyachilari va millatchilariga ta’siri Afg‘onistondagi turkiy islohot harakatlarining asosiy jihatlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

1913-yilda Ta’lim Kengashi Habibiya maktabi uchun nizom ishlab chiqdi, o‘qituvchilar tayyorlash kollejini tashkil etdi va beshta boshlang‘ich maktab ochdi. Afg‘onistonning yangi maktab tizimi diniy va dunyoviy ta’limni birlashtirgan bo‘lib, Usmonli imperiyasining ta’lim tizimiga o‘xshash edi. Trabzondan kelgan Usmonli fuqarosi Hasan Hilmi Efendi Afg‘onistonning milliy pochta xizmatini tashkil etgan. U yaratgan tizim deyarli Usmonli pochta tizimi bilan bir xil darajada bo‘lgan¹².

Turkiyalik mutaxassislarining Afg‘onistonni modernizatsiya sari boshlash jarayonidan tibbiyot sohasi ham chetda qolmadi. Usmonli shifokorlari Afg‘onistonda qator ishlarni amalga oshirishdi va Afg‘on qirollik saroyida ham Usmonli tibbiyot mutaxassislari muhim lavozimlarni egallagan. Masalan Münir Izzet Beg Amir Habibullohning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo‘lgan. 1919-yilda fuqarolik va harbiy kasalxonalar boshlig‘i etib tayinlangan. Ahmad Fahima Münir Izzet Beg tomonidan Misrdan yollangan. 1919-yilda qirollik shifokori etib tayinlangan¹³. Ahmad Istanbul Tibbiyot maktabida tahsil olgan va Parijda ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning rahbarligida Kobulda ommaviy chechakga qarshi emlash dasturi boshlangan. Chechak kasalligiga qarshi vaksina ishlab chiqargan. Habibullaxonning katta o‘g‘li shahzoda Inoyatulla bilan hamkorlikda 1915-yilda vabo epidemiyasi vaqtida karantin choralarini joriy qilgan¹⁴. "Siroj ul-Axbor Afg‘oniya" gazetasi orqali Münir Izzet Begning tibbiy faoliyati keng yoritilgan. Gazetada tug‘ma tanglay yorig‘ini to‘g‘rilash, suyak sinishlarini davolash, o‘simtalarni olib tashlash, nogironlar uchun protez tayyorlash kabi o‘z davri uchun noyob tibbiy operatsiyalar haqida yozib borilgan¹⁵. Bu tasvirlar orqali Usmonli tibbiyotining ilg‘or yutuqlari Afg‘oniston aholisi orasida tanitilgan.

¹¹ Abdul Hay Habibi. *Junbish-i Mashrutiyat Dar Afghanistan*. Peshawar , Sazman-i Mahajirin-i Musulman-i Afghanistan. 1999, pp. 5-6.

¹² Michael O’Sullivan, “The Little Brother of the Ottoman State: Ottoman Technocrats in Kabul and Afghanistan’s Development in the Ottoman Imagination, 1908-1923”, p. 1873.

¹³ Ludwig Adamec, *Historical and Political Who’s Who of Afghanistan* (Graz: Akademische Druck- u. Verlagsanstalt, 1975), p. 159.

¹⁴ May Schinasi, *Afghanistan at the Beginning of the Twentieth Century*, p. 145.

¹⁵ *Siroj ul-Axbor-i Afg‘oniya*: gazetasining 10 soni. – pp. 6, 11.

XULOSA

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, Kobuldagi Usmonli muhojirlari ta’lim, matbaachilik, pochta tizimi va tibbiyot sohalarida tub islohotlarni amalga oshirishgan. Mahmud Tarziy rahbarligidagi modernizatsiya harakatlari Afg‘onistonda ilmiy va texnologik rivojlanishning asosini yaratgan. Bu faoliyat Afg‘oniston va Usmonli davlati o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini oshirishga xizmat qilgan. Bu omil zamonaviy Turkiyaga o‘z tarixiy merosidan foydalanib, Afg‘onistonning barqarorligi va tinchlik o‘rnatish jarayonida yana muhim rol o‘ynash imkoniyatini beradi. Kelajakda Afg‘oniston va Turkiya o‘rtasidagi modernizatsiya jarayonlariga oid tadqiqotlar yanada kengroq o‘rganilishi kerak, chunki bu muhim va hali yetarlicha tadqiq qilinmagan tarixiy davr hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Roland Wild, Amanullah: Ex-King of Afghanistan, (Quetta: Nisa Traders, 1932), p. 65.
2. Michael B. O’Sullivan, The Little Brother of the Ottoman State: Ottoman Technocrats in Kabul and Afghanistan’s Development in the Ottoman Imagination, pp. 1846–1887.
3. Rhea Talley Stewart. Fire in Afghanistan: 1919-1929, Faith, Hope and the British Empire. Doubleday & Company Inc., 1973, p. 719.
4. Mehmet Saray. Afganistan ve Türkler. Istanbul, Edebiyat Fakültesi Basimevi, 1987. p. 25.
5. Mehmed Fazlı, Resimli Afgan Seyahatı, Istanbul: Matbaa-i Ahmed Ihsan, 1909.
6. Celal Nuri, Ittihad-ı Islam ve Almanya (Istanbul: Yeni Osmanlı Matbaa ve Kütüphanesi, 1917, p. 54.
7. Abdul Hay Habibi. Junbish-i Mashrutiyat Dar Afghanistan. Peshawar, Sazman-i Mahajirin-i Musulman-i Afghanistan. 1999, pp. 5-6.
8. Michael O’Sullivan, “The Little Brother of the Ottoman State: Ottoman Technocrats in Kabul and Afghanistan’s Development in the Ottoman Imagination, 1908-1923”, p. 1873.
9. Ludwig Adamec, Historical and Political Who’s Who of Afghanistan (Graz: Akademische Druck- u. Verlagsanstalt, 1975), p. 159.
10. May Schinasi, Afghanistan at the Beginning of the Twentieth Century, p. 145.
11. Siroj ul-Axbor-i Afg‘oniya: gazetasining 10 soni. – pp. 6, 11.